

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOTIROVA SABOGUL RAHMATULLAYEVNA**

**BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION  
TADQIQOT FAOLIYATIGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Botirova Sabogul Rahmatullayevna**

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish metodikasi ..... 3

**Ботирова Сабогул Раҳматуллаевна**

Методика формирования готовности будущих учителей химии к инновационной исследовательской деятельности ..... 21

**Botirova Sabogul Rahmatullayevna**

Methodology of the formation of future chemical chemistry for innovative research ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOTIROVA SABOGUL RAHMATULLAYEVNA**

**BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION  
TADQIQOT FAOLIYATIGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/3537 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xamroyev Kamoliddin Shaxobiddinovich**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qiyamov Nishon Sodiqovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Tashpulatov Xurshid Shukurovich**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.05.2019.K.02.05 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "29" iyun soat 11.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti Kimyo binosi 220-xona, majlislar zali. Tel.: (+99866)239-11-40, faks: (+99866)239-11-51, e-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (53 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "19" iyun kuni tarqatildi.  
(2024-yil "19" iyun dagi 7-0 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Nasimov A.M.**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, L.f.d., professor

**Uzoqov J.R.**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi (PhD)

**Abdurahmonov E.**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqiyosidagi amaliy tadqiqotlar bosqichida innovatsion loyihalar va dasturlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish imkoniyatlari, mutaxassislarni bunday faoliyatga tayyorlash uchun jahonning yetakchi universitetlarida CDIO konsepsiyasi joriy etilgan bo‘lib, (Conceive, Design, Implement, Operate-“O‘ylab toping, loyihalashtiring, amalga oshiring, ishlang”) ko‘p komponentli, tizimlar va texnologik jarayonlarni rejalashtirish, loyihalash, ishlab chiqarish va qo‘llash jarayonida turli xil masalalarning keng qamrovli innovatsion tadqiqotlarga ehtiyojni dolzarblashtiradi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda yangi madaniyat yaratish jarayonini davom ettirish va jamiyatning ta‘limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish niyati kuchayib borayotganligi o‘qituvchi-funksional ijrochi-o‘qituvchi-tadqiqotchi sifatida innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorlashining universal modellarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Britaniya (“Hamma joyda yuqori sifatli ta‘lim” (Educftional Excellence Everywhere)), Fransiya (“Ta‘lim vazirligi ko‘rsatmalari”) kabi xorijiy davlatlarning tajribasi ta‘limning yangi paradigmasiga o‘tish bo‘lib, bu o‘z navbatida jahon ta‘limning yo‘riqnomasi sifatida ta‘lim tizimini rivojlantirishda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish modelini yaratish lozimligini ko‘rsatdi.

Jahonda tadqiqotchilik faoliyati asosida pedagogika oliy ta‘lim muassasasi talabalarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish, motivatsion, kognitiv, faoliyat va refleksiv yo‘nalishlar asosida bo‘lajak mutaxassislarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, tadqiqotchi talabalar nafaqat yangi bilimlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanishi, balki ilmiy taraqqiyot natijasida yuzaga keladigan xavf va noaniqliklarga dosh bera olishlari, olgan tajriba ularning kelajakdagi qiziqishlarini, kasbiy faoliyatga munosabatini va umrbod ta‘lim olish istagini shakllantirishning integrativ metodikalarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga doir o‘quv va auditoriyadan tashqari faoliyatda innovatsion tadqiqot faoliyatni shakllantirish modellarini yaratishga yo‘naltirilgan didaktik tizimni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Respublikamizda talabalarning tajribasi, ehtiyojlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda, ularning ilmiy, innovatsion yutuqlarini rag‘batlantirishga, ularni ijodiy va tanqidiy fikrlovchi bo‘lishga imkon beradigan, mustaqil va hamkorlikda o‘rganish imkoniyatlarini joriy qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi<sup>1</sup> O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygozlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi

oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish” shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida<sup>2</sup> “Oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish” kabi muhim maqsad va vazifalar belgilandi. Bu esa, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Dissertatsiya mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

#### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

Xorijlik olimlardan W.Hutmacher, M.Connell, J.Hartig, E.Klieme, H.P.Kelzlar tomonidan talabalar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish metodikasi va ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlili hamda nazariy-metodologik jihatlari yoritib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida pedagog olimlar V.I.Andreyev, L.N.Gorbunova, I.A.Zimnyayalar tomonidan talabalarni tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari va zamonaviy yondashuvlar tadqiq etilgan bo‘lsa, K.K.Krayevskiy, V.N.Kuzmina, I.Y.Lerner, A.K.Markova, N.A.Suxina va boshqalarning tadqiqot ishlarida kimyo fanining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

Respublikamiz olimlari tomonidan uzluksiz kimyo tizimida kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar jumlasiga, X.T.Omonovning kimyo ta'limining falsafiy-pedagogik asoslari va uni takomillashtirish, F.M.Alimovning pedagogika oliy o'quv yurtlarida kimyoni o'qitishda kompyuter texnikasidan foydalanishning didaktik asoslari, S.A.Nizamovning kimyo ta'limi samaradorligini oshirishning innovatsion texnologiyalari, M.Sh Axadovning kimyo ta'limida modulli tizim va elektron darslik yaratish metodikasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Ta'lim oluvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash masalalari yurtimiz olimlari B.X.Raximov, Sh.S.Sharipov, B.A.Nazarova, I.B.Asqarov kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot rejasi va AIF-2/15-“O'zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etish modeli va texnologiyasini ishlab chiqish” (2020-2023 y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil etish;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish, modelining pedagogik mazmun mohiyatini yoritib berish;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini axborot-metodik ta'minoti asosida texnologik tizimiga ustuvorlik berish;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish tizimi darajasini baholash mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash, innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti kimyo ta'limi yo'nalishi talabalaridan 319 nafar respondent-talabalar jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga uslubiyatlarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish va tahlil etish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa,

suhbat, test, intervyu), pedagogik eskperement; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda tadqiqot qobiliyati amaliyotga yo'naltirilgan, partisipativ hamda kompetentsiyaviy yondashuvlar asosida aniqlangan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish modeli tadqiqot kompetensiyasi tarkibidagi motivatsion, kognitiv, faoliyat hamda reflektiv komponentlarning pedagogik sifatleri, innovatsion loyihaviy faoliyatining bosqichlari aniqlangan;

innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishning axborot-metodik ta'minoti ommaviy, jamoaviy, individual faoliyat shakllarini tuzilmaviy-mazmuniy modeli bilan qayta aloqasini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish tizimini baholash mezonlari, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini innovatsion tadqiqot faoliyatiga moslashuvining formal dinamik tuzilmasi va individual-tipologik adekvatligini emperik baholash natijalari asosida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga doir tadqiqot kompetensiyalar tizimi va komponentlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish modeli va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan, innovatsion tadqiqot faoliyatiga mos kompleks yondashuvlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarni innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishning uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarni innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishning "Innovatsion rivojlanish trayektoriyasi" dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarinnig amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishning mazmun-mohiyati yoritib berilganligi, "tadqiqotchilik kompetensiya"lari, "kompetensiya komponent"lari innovatsion dastur, innovatsion loyiha tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilganligi, bo'lajak kimyo



o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishda tadqiqotchilik kompetensiyalarini tatbiq etishning ustuvor yo'nalishlari pedagogik-psixologik xususiyatlarining yoritib berilganligi, innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlash ilmiy ijtimoiylashtirishning omili ekanligi, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlash tuzilmasining aniqlashtirilganligi, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatni tashkil etish talablarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlashga doir innovatsion yondashuvlarning amaliy jihatlarining aniqlashtirilganligi, innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish tizimi, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil etish orqali axborot, tadqiqot, ijodiy, amaliy va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlash modeli, texnologik tizimning ishlab chiqilganligi, innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlikni shakllantirish komponentlari asosida innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ommaviy (innovatsion loyiha, ijodiy ishlar); jamoaviy (ijodiy taqdimotlar, treninglar va boshqalar); individual (individual tajriba, mualliflik ishlanmalari, taqdimotlar) shakllari hamda motivatsion-refleksiv usullar guruhi: o'z-o'z hurmat qilish, introspeksiya, ishbop o'yinlar, muammoli ta'lim, treninglar, algoritmlash, modellashtirish, innovatsion-faoliyat metodlarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllashtirish metodikasiga doir tadqiqot natijalari:

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, tadqiqot kompetensiyalari hamda tadqiqot qobiliyati barqarorligini ta'minlashga doir takliflar "Kimyo o'qitish metodikasi" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i bilan chop etish uchun berilgan 233-0119-son ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlash samaradorligiga erishilgan.

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish modeli tadqiqot kompetensiyasi tarkibidagi motivatsion, kognitiv, faoliyat hamda refleksiv komponentlarning pedagogik sifatleri, innovatsion loyiha tavsifi asosida "Kimyodan masalalar yechish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug'i bilan chop etish uchun berilgan 110-052-sonli ruxsatnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlashni shakllantirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish tizimini baholash mezonlari, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini innovatsion tadqiqot faoliyatiga moslashuvining formal

dinamik tuzilmasi va individual-tipologik adekvatligini emperik baholash natijalari asosida OT-F1-36 “Talabalar ma’naviyatini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish” (2017-2020 yy.) loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-maydagi 03/10-85-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish samaradorligini baholash kompetentligini rivojlantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta jumladan, 7 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarinnig e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 2 ta o‘quv qo‘llanma nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy 116 matn sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, dissertatsiya tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlashda zamonaviy tadqiqotlar tasnifi, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, Innovatsion tadqiqot faoliyati bo‘lajak kimyo o‘qituvchisini ilmiy ijtimoiylashtirish omili sifatleri yoritib berilgan. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishga doir adabiyotlar tahlili asosida muammoga doir quyidagi tushunchalarning mazmun-mohiyati aniqlashtirildi: innovatsion tadqiqot jarayonning o‘ziga xosligi, innovatsion tadqiqot faoliyati, tadqiqotchilik kompetensiyasi, tadqiqotchilik komponentlari hamda innovatsion tadqiqot faoliyati ilmiy ijtimoiylashtirishning omili va hokozolar.

Innovatsion tadqiqot atamasining mazmun mohiyatidan kelib chiqib, “Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini


shakllantirish yuqori darajadagi innovatsion tadqiqotchilik faoliyati jarayonlari bilan bog‘liq tadqiqotchilik kompetensiyalarini tarkib toptirish mazmuni, komponentlari, omillari, tashkiliy va diagnostik shart-sharoitlarni tizimlashtirish jarayonidir” degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning quyidagi indikatorlari aniqlashtirildi: umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni bo‘yicha malaka talablari, o‘quv dasturlari mazmunini bilish va ulardan foydalana olish; tadqiqotchilik kompetensiyalari va komponentlarini e‘tiborga olgan holda innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter-texnik vositalar va unnig qurilmalarini bilish, Microsoft Office dasturlari (Word, Exsel, Power Point, Access, Zoom Video Communications)da ishlash; innovatsion tadqiqot faoliyati sifatini oshirishga xizmat qiladigan kompyuter va multimediya texnologiyalari, masofaviy va tarmoq texnologiyalaridan foydalana olish; innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etishga oid me‘yoriy hujjatlar, didaktik-metodik materiallar (innovatsion dastur va loyiha ishlanmalari, ishbilarmon o‘yinlar, videokonferensiyalar, viktorinalar, trening mashg‘ulotlari ishlanmalari)ni tayyorlay olish; innovatsion texnologiyalarni (klassik, an‘anaviy, moslashuvchan) qo‘llay olish; milliy va ilg‘or xorijiy innovatsion tadqiqot modellaridan samarali foydalanish; innovatsion metodlarni qo‘llash; talabalarning virtual faoliyatini samarali tashkil etish; zamonaviy tadqiqot konsepsiyalari, innovatsion tadqiqot faoliyatiga oid ilmiy yangiliklar, innovatsion loyiha ishlanmalari va xorijiy tajribalardan foydalanish; innovatsion tadqiqot mavzularining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan konferensiyalar, treninglar, viktorinalar, tanlovlar tashkil etish va innovatorlik qilish; zamonaviy AKT vositalari asosida talabalar bilan konferensiyalar, tanlovlar tashkil etish; innovatsion tadqiqotlar o‘tkazishga doir izlanishlar, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga doir tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish; kreativlik ko‘nikmalarining rivojlanganligi, o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan innovatsion g‘oyalar va tashabbuslarni olg‘a surish; innovatsion faollik, innovatsion tadqiqotlarga nisbatan ochiqlik, ularni qo‘llab-quvvatlash, o‘z kasbiy faoliyatida foydalana olish.

Dissretatsiyaning **“Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlikni shakllantirishga doir didaktik ta‘minoti, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorligini shakllantirish modeli va texnologik tizimi mazmuni yoritib berilgan. Jumladan, innovatsion tadqiqot faoliyati yaxlit tizim sifatida, ijtimoiy buyurtma, maqsad, metodologik yondashuvlar, innovatsion tadqiqot texnologiyalari, qonun, qonuniyat, tamoyillar, innovatsion tadqiqot mazmuni, innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlikni shakllantirishni tashkil etish shakl, metod va vositalari, professor-o‘qituvchilar, talabalarning ta‘lim jarayonidagi kombinatsion integratsiyasi, diognostik, profilaktika, korreksion faoliyatning o‘zaro aloqadorligi va birligini talab etishi,

innovatsion tadqiqot faoliyatga kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos xususiyati shaxsni rivojlantiruvchi bir qancha xususiyatlari, ijodiy imkoniyatlarni tan olish va keskin o'zgarishlar, beqaror innovatsion vaziyatlar bilan bog'liqligi; pedagogik nuqtai-nazardan innovatsion tadqiqot faoliyati – bu subektning kechinmalari sifatida namoyon bo'ladigan uning ruhiy tajribalari, “hayotiy orzu maqsadlari”ga murojaat etishni taqozo etuvchi jarayon ekanligi haqidagi misollar orqali asoslab berildi.

Ilmiy-pedagogik tahlillar va emperik o'rganishlarimiz, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etishga mavjud ilmiy-ijodiy va pedagogik tayyorgarlik darajasi bugungi zamonaviy sharoitda innovatsion, ijodiy izlanuvchanligiga qo'yiladigan talablar tizimiga mos kelmasligini ko'rsatdi. Shu boisdan tadqiqot jarayonida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqotga tayyorlashga doir qo'yiladigan talablarni amalga oshirish vazifalar tizimi aniqlashtirildi (1-rasm.)



**1-rasm. Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorlashga qo'yiladigan talablarni amalga oshirish tizimi**

Mazkur tuzilmada bo'lajak kimyo o'qituvchilarni innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlashga qo'yiladigan vazifalar tizimi, innovatsion loyiha ehtiyojlari, loyihaviy faoliyatga tayyorlash dasturlarining mazmuni va tuzilishi, tamoyillari, yondashuvlar, maqsadlarini o'zida aks ettiruvchi, rejalashtirish,

tashkilot, motivatsiya, nazorat va muvofiqlashtirishning integral vazifalarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash orqali shakllantirib borishligi ko‘zda tutildi.

Innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgalikni modellashtirish jarayonida innovatsion tadqiqot modellarini metodologik loyihalashtirish, nazariy yondashuvlar va kasbiy pedagogik faoliyat bilan bog‘liq tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga doir mualliflik modellariga tayangan holda ilmiy uslubiy, nazariy va innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish modeli ishlab chiqildi.(2-rasm).


Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish modeli o‘zida oliy ta’lim muassasalarining quyidagi o‘ziga xosliklari: maqomi, ta’lim dasturlarining innovatsion maqsadlarga yo‘nalganligi, ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishi, muassasa turi, mavqei, mutaxassis kadrlarni tayyorlash bo‘yicha strategik vazifalarni inobatga olgan holda innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishning istiqbolli namunaviy andozasini aks ettirdi. Dissertatsiya mavzusi doirasida amalga oshirilgan emperik tadqiqot, nazariy-metodologik hamda diskursiv tahlillarga tayanib tadqiqotchilik kompetensiyalari asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish modelini loyihalashda uning tayanch komponentlari elementlarining o‘zaro aloqadorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi.

Modelning innovatsion tadqiqotga yo‘naltirilgan komponenti axborot, tadqiqot, ijodiy, amaliy yoki amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorlashni ko‘zda tutib, metodologik asos sifatida motivatsion, axborot, kognitiv, kommunikativ, aks ettiruvchi, shaxsiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini hisobga olish lozimligi aniqlashtirildi.

Innovatsion tadqiqot faoliyati mazmunli komponent bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari, turlari va faoliyat shakllarini o‘zida aks ettirdi. (mazmun asosida innovatsion loyihalar, innovatsion dastur va yo‘nalishlar, kasbiy-amaliy, ijodiy faoliyat turlari).


Modelning tashkiliy-faoliyatga doir komponenti innovatsion tadqiqot faoliyat jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun yaratilgan shakl, usul va innovatsion texnologiyalarning o‘zaro kombinatsiyasini o‘zida ifoda etadi.

Innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish samaradorligi tadqiqotchilik kompetensiyalarni shakllanish samaradorligi mezonlari va ko‘rsatkichlari bloki sifatida maxsus ilmiy-tadqiqot metodlarini tanlab olish va tajriba-sinov ishlarida qo‘llashni taqozo etdi. Maxsus ilmiy-tadqiqot metodlari sifatida anketa, test, ishbop o‘yinlar, refleksiya, pedagogik kuzatuv, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zi baholash kabilar belgilab olindi.



**2-rasm. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish modeli**





**3-rasm. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning texnologik tizimi**

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish bosqichlari o'zida quyidagi algoritmlar ketma-ketligini aks ettirdi: "g'oya-jarayon-faoliyat-natija" tuzilmasida, klassik, an'anviy va moslashuvchan innovatsion texnologiyalarning oqilona kombinatsiyasi asosida, motivatsion-ehtiyoj, motiv va maqsad; kognitiv-ilmiy-pedagogik aloqa vositasi; operativ-intellektual, axborot, diagnostika va sharhlar ko'nikmalari (metod va vositalar) ishlab chiqish; indikativ-aqliy modellashtirish, tasavvurni shakllantirish, tadqiqotlarni rejalashtirish; baholash-natijalarni tahlil etish, baholash va introyeksiya komponentlar mazmuni (3-rasm).

Innovatsion tadqiqot faoliyatini shakllantirishga tayyorgarlikning kommunikativ komponenti ilmiy va pedagogik aloqa vositasi sifatida muloqot sohasiga ta'sir qiladi. Bu kommunikativ ko'nikmalarning mavjudligini, shuningdek, ilmiy bilimlarning natijalarini yozma ravishda rasmiylashtirish ko'nikmalarini referatlar va ma'ruzalar tuzish, ilmiy maqolalar yozish va ularni nashrga tayyorlash tajribasi va tadqiqot natijalarini og'zaki taqdim etish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

Indikativ tayyorgarlik komponenti - bu ilmiy jarayonni aqliy modellashtirish, mavjud sharoitda tadqiqot qanday olib borilishi haqidagi tasavvurni shakllantirish, keyingi tadqiqot faoliyatini rejalashtirish va kutilayotgan natijalarni bashorat qilishni ta'minlaydigan ko'nikmalar to'plami.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishning texnologik tizimi ishlab chiqishda ommaviy (innovatsion loyiha, ijodiy ishlar); jamoaviy (ijodiy taqdimotlar, treninglar va boshqalar); individual (individual tajriba, mualliflik ishlanmalari, taqdimotlar va boshqalar). Quyida ulardan birini namuna sifatida keltirib o'tamiz.

Masalan, Navoiy davlat pedagogika institutining kimyo ta'lim yo'nalishi kafedrasidan tashkil etilgan "Innovatsion loyiha" tanlovlarida ("Innovatsion loyiha-kasbiy yuksalish sari" kasb bayramiga bag'ishlangan va boshqalar) kimyo ta'lim yo'nalishi 1-3 kurs talabalari faol ishtirok etishdi. Innovatsion loyihalar tanlovi bo'lajak kimyo o'qituvchisining innovatsion tadqiqot faoliyatining o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan kognitiv, ijodiy, motivatsion va protsessual komponentlarni tarkib toptirish, nostandart vaziyatlarda tez qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Texnologik tizim doirasida innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etishda samarali metodlardan foydalanish ahamiyatli bo'lib, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan metodlar uchta (individual tajribaga, introspeksiya, individual va guruh tajribasini jadal rivojlantirishga, algoritmlash, modellashtirish, ijodiy o'zgarmaslik kabi) guruhga tasnif etish orqali amaliyotga tatbiq etildi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishda bo'lajak kimyo o'qituvchilari uchun to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga olgan kasbiy jihatdan innovatsion rivojlanishning individual trayektoriyasi dasturini modellashtirishga alohida ahamiyat berildi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda algoritmlash, modellashtirish, ijodiy o'zgarmaslik kabi eng yangi ta'lim texnologiyalarini birlashtirgan faoliyat va innovatsion tadqiqot faoliyat usullari guruhiga alohida e'tibor qaratildi. Dastavval, kimyo ta'lim yo'nalishi birinchi kurs talabalarida innovatsion tadqiqot faoliyati uchun talabalarga zarur bo'lgan kasbiy sohadagi tadqiqot faoliyatining nazariy va uslubiy asoslari, protsessual (tadqiqot) metodologiyasi haqida bilim va ko'nikmalar shakllantirildi. Masalan, 2-kurs talabalari "Kelajakda kimyo ta'limi sifatida-mening o'rnim" innovatsion faoliyat dasturini yaratdilar. Kimyo ta'limi 3-kurs talabalari modellashtirish metodidan foydalanib, kimyo ta'limi yo'nalishi talabalari uchun "Loyiha ishtirokchisi modeli" hamda "Nima uchun muhim" loyiha tashkilotchilariga aylanishdi. Oliy ta'lim



muassasalarida innovatsion tadqiqot faoliyatini tashkil etish ijodiy bilimga asoslangan yondashuvni talab qiladi, bu esa innovatsion tadqiqot faoliyatiga qiziqayotgan talabani samarali ijodiy ish tadqiqotchisiga aylantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish metodikasi bo‘yicha tajriba sinov ishlari tashkil etish va uning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining innovatsion tadqiqot faoliyatiga tayyorligini shakllantirish metodikasiga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili yoritib berilgan. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari uch bosqichni o‘z ichiga oldi. Birinchi – aniqlovchi bosqichning maqsadi sifatida oliy ta’lim muassasalarining kimyo ta’limi yo‘nalishi talabalarining innovatsion tadqiqot faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish darajasini mavjud holatini aniqlashdan iborat etib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlariga Navoiy davlat pedagogika instituti kimyo ta’limi yo‘nalishi 116 nafar, Jizzax davlat pedagogika universiteti 110 nafar, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 93 nafar talaba ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlariga jami 319 nafar respondent-talabalar jalb qilingan bo‘lib, shulardan 162 nafar talaba tajriba va 157 nafar talaba nazorat guruhini tashkil etdi.

